

**ADABIY TA'LIMDA NAZARIY MA'LUMOTLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI*****Bobomurodova Sevinch Farrux qizi****Iqtisodiyot va pedagogika universiteti**Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)**yo'nalishi 1-kurs talabasi****Ilmiy rahbar: Sh.Z.Raxmatullayeva****Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti*

Annotatsiya: *Maqolada adabiy ta'limda nazariy ma'lumotlardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar berilgan. Misollar bilan dalillangan. Umumta'lim maktablarida adabiyot darslarini o'qitishda foydalaniladigan materiallar xususida nazariy ma'lumotlarni qay usulda, qanday hajmda taqdim qilish masalasi atroflicha tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *adabiyot, tahlil, adabiy muloqot, asar tahlili, mustaqil fikr, nazariy ma'lumot.*

Respublikamizda adabiyot fanini o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, tayanch kompetensiyalar negizida har bir fanga doir alohida kompetensiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi hamda o'qish savodxonligini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz¹,— deya ta'kidlanishi adabiyot fani oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi. Umumta'lim tizimida adabiyot fanini o'qitish orqali o'quvchilarda matn

¹Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.



bilan ishlash kompetensiyalarni, xususan, adabiy muloqot ko'nikmasini to'la shakllantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, so'z boyligining oshishiga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kompetensiyasini rivojlantirishga doir o'quv tadbirlarini takomillashtirish zarurati mavjud.

Adabiyot fani orqali maktab o'quvchilarida nazariy bilim hosil qilishda quyidagilar ilmiy pedagogik muammo sifatida qaralmoqda:

1-jadval

T\r	Bugun qo'llanilayotgan yondashuvlar	amalda Natija
1.	Adabiyot namunalarini o'qitishda nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni parallel rivojlantirish	Ikkisini ham bir paytda hosil qilishga urinish – amaliy ko'nikmaning to'la shakllana olmasligiga olib keladi.
2.	Boshlang'ich azariy ma'lumotni o'qitib bo'lib, keyin asar tahliliga kirishish	Nazariy ma'lumotga urg'u berish natijasida asar mohiyatiga kirish ikkinchi darajaga tushib qoladi.
3.	Nazariy ma'lumotlar bermasdan asar mazmunini o'rganishni boshlash	Har qanday ijodi namunasini tegishli nazariy bilimsiz to'liq tushunib bo'lmaydi.
4.	Asar tahlili davomida zarur nazariy ma'lumotdan doston yoki rivoyat mazmunini teranroq anglashda vosita sifatida foydalanish	To'g'ri yondashuvlardan biri bo'lib, bunda adabiyot o'qitishning bosh maqsadiga mos ravishda asosiy e'tibor asarni tushunish va nazariy bilimlar mohiyatni ochishga ko'maklashuvchi yordamchi vosita sifatida qaraladi.



Jadvalda ko‘rinib turgani kabi biz adabiyotni o‘qitishda asar tahlilini birinchi o‘ringa qoyib, nazariy bilimni unga yordamchi vosita sifatida yondashish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Bu borada S. Matjonovning yozishicha, “Adabiyotga iste’dodli kitobxonlar zarur. Kitobxon iste’dodi duch kelgan asarni o‘qib, u haqida fikr bildirish bilan o‘lchanmaydi, balki tanlab o‘qish, o‘qiganlari yuzasidan ijodiy fikrlash, to‘g‘ri xulosa chiqarish, zarurat tug‘ilganda undan amaliy foydalanish iqtidoriga egalik bilan xarakterlanadi. Iste’dodli kitobxon belgilangan mavzu bo‘yicha kitob tanlay oladi. Kitob o‘qish uning uchun majburiyat emas, hayotiy zaruratga aylanadi”²

O‘qituvchi belgilangan vaqt ichida hikoya, qissa, shuningdek, xalq dostonlariga xos xususiyatlar haqida ma’lumot berishi, darslikdagi dostonlardan berilgan parcha bilan o‘quvchini to‘liq tanishtirishi, ayni vaqtda mazkur parchani atroflicha tahlil etishi hamda dasturda talab qilinganiga muvofiq badiiy obrazlar haqida o‘quvchilarda tushuncha shakllantirilishi lozim. Agar o‘qituvchi vaqtdan samarali foydalanish malakasini egallamagan bo‘lsa, bu tadbirlarni bajarishga ulgura olmaydi.

Olimlarning ilmiy-nazariy fikrlari ham adabiyot o‘qitishda foydalanishish. Masalan, metodist olim Q. Yo‘ldoshevning “Tahlil qilinadigan asar qanchalik yirik bo‘lmasin, vaqt esa qanchalik kam bo‘lmasin, epik asarning mazmunini so‘zlab berish mumkin emas”, degan fikrlari o‘quvchiga yo‘nalish beradi. Bu borada ham asarni tez va oson tushunishda nazariy bilim yordamga keladi, zero badiiy asarlarda qo‘llaniladigan syujet va badiiy tasviriy vositalar haqida ham tahlil jarayonida ma’lumot berib borish zarur bo‘ladi.

Xullas, umumiy o‘rta ta’lim tizimida adabiyot o‘qitishda nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda janr xususiyatlarini inobatga olib tayyorlangan takliflardan foydalanish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va amalda tadbiriq etish o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirishda amaliy yordam beradi.

² Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 39-б.



ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Sh. Mirziyoyev Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. –14-b.

2. S. Matjon Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 39-b.